ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 11.07.2026 · Accepted: 31.08.2026 · Published: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/h4xcme19

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

O‘zbek musiqa san’atiga Muxtor Ashrafiy qo‘shgan ulkan hissasi

(Muxtor Ashrafiy’s major contribution to Uzbek musical art)

Nozima Mirzajonova

Department of Composition, Bastakors and General Piano
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: nozimakhon92@gmail.com

Annotatsiya

O‘zbekistonda asrlar davomida shakllanib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan musiqa san’ati an’analarini o‘rganish, rivojlantirish va keng targ‘ib etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Milliy musiqa merosini asrab-avaylash, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda san’at arboblarining ma’naviy-ma’rifiy islohotlardagi faol ishtirokini ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna asarlarini yaratish, ustoz-shogird an’analarini davom ettirish san’at rivojining muhim omillaridandir. Yosh avlodga musiqa san’atini o‘rgatishda xalq an’analari, og‘zaki musiqiy ijod namunalari va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini uyg‘unlashtirish zarur. Bu yondashuv yoshlarning ijodiy salohiyatini oshirish, milliy qadriyatlarga hurmatini mustahkamlash va ma’naviy tarbiyasini yuksaltirishga xizmat qiladi. O‘zbek san’ati tarixi boy merosga ega bo‘lib, ustoz san’atkorlarning hayoti va ijodi yoshlar uchun ibrat maktabidir. Ularning bebaho merosini o‘rganish, asrab-avaylash va kelajak avlodlarga yetkazish san’atshunoslar hamda pedagoglarning muhim burchidir. Chunki san’atga, xalq xizmatiga va milliy madaniyat ravnaqiga bag‘ishlangan umrlar hamisha e’zozlanadi, ustozlar merosi esa qalblarda mangu yashaydi. Shuningdek, bu meros yoshlarni vatanparvarlik, ezgulik, ijodkorlik va milliy o‘zlikni anglash ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa san’ati, ma’naviy-ma’rifiy, ustoz-shogird, vatanparvarlik, ezgulik, ijodkorlik.

Abstract

Studying, developing, and widely promoting the traditions of musical art—which have taken shape in Uzbekistan over the centuries and been passed down from generation to generation—is one of the most important tasks of our time. Preserving the national musical heritage, strengthening its material and technical infrastructure, and ensuring the active participation of artists in spiritual and educational reforms are of particular significance. Furthermore, key factors in the development of the arts include the creation of high-quality stage works that celebrate both national and

universal human values, as well as the continuation of the "master-apprentice" tradition. When educating the younger generation in the art of music, it is essential to combine folk traditions and examples of oral musical heritage with modern educational technologies. Such an approach helps to unlock the creative potential of young people, fosters respect for national values, and contributes to their spiritual development. The history of Uzbek art possesses a rich legacy, and the lives and works of its eminent masters serve as an inspiring example for the youth. It is the paramount duty of art scholars and educators to study and preserve this invaluable heritage, passing it on to future generations. After all, a life dedicated to art, service to the people, and the flourishing of national culture always commands deep respect, and the legacy of such mentors remains in our hearts forever. Moreover, this legacy helps to nurture the younger generation in the spirit of patriotism, kindness, and constructive endeavor, while fostering an awareness of their own national identity.

Keywords: musical art, spirituality and enlightenment, the "master–apprentice" system, patriotism, goodness, creation.

Аннотация

Изучение, развитие и широкая популяризация традиций музыкального искусства, которые складывались в Узбекистане на протяжении столетий и передавались из поколения в поколение, – одна из важнейших задач современности. Особое значение имеют сохранение национального музыкального наследия, укрепление его материально-технической базы, а также обеспечение активного участия деятелей искусства в духовно-просветительских реформах. Кроме того, ключевыми факторами развития искусства являются создание высокохудожественных сценических произведений, воспевающих как национальные, так и общечеловеческие ценности, а также продолжение традиции «мастер – ученик». При обучении молодого поколения музыкальному искусству необходимо сочетать народные традиции и образцы устного музыкального наследия с современными образовательными технологиями. Такой подход способствует раскрытию творческого потенциала молодежи, укреплению уважения к национальным ценностям и духовному развитию. История узбекского искусства обладает богатым наследием, а жизнь и творчество выдающихся мастеров служат для молодежи достойным примером. Важнейший долг искусствоведов и педагогов – изучать и беречь это бесценное достояние, передавая его грядущим поколениям. Ведь жизнь, посвященная искусству, служению народу и процветанию национальной культуры, всегда пользуется глубоким уважением, а наследие таких наставников навсегда остается в наших сердцах. Более того, это наследие помогает воспитывать молодежь в духе патриотизма, доброты, созидания и осознания своей национальной идентичности.

Ключевые слова: музыкальное искусство, духовность и просвещение, система «мастер – ученик», патриотизм, добро, созидание.

20-asr o‘zbek musiqasi uchun o‘ziga xos davr bo‘ldi. Chunki atrofimizdagi barcha hodisalar, jumladan ijtimoiy hayot, kundalik voqealar va insoniyatning yangi tafakkuri shakllanishi musiqaga ta’sir ko‘rsatdi. Atrofimizda sodir bo‘lgan voqealar turli san’at turlarida, shu jumladan musiqada aks etdi [1, 48-b.].

O‘zbek kompozitori, dirijyor va pedagog, o‘zbek zamonaviy musiqasining asoschilaridan biri Muxtor Ashrafiy 1912-yil 11-iyunda Buxoroda tug‘ilgan, san’atkor juda yoshligidan boshlab musiqaga qiziqadi. Ashrafiy bolaligida madrasada, so‘ngra yangi tipdagi boshlang‘ich maktabda ta’lim oladi. 1924-yilda musiqa texnikumida va Maorif institutida o‘qiydi. 1928-yilda Samarqanddagi O‘zbek musiqa va xoreografiya institutiga o‘qishga kiradi. Mana shu yillarda uning dastlabki ijodiy ishlari - bir ovozli xorlar va qo‘shiqlari yaratilgan edi. 1929-yilda u Sh. Ramazonov va T. Sodiqov bilan birgalikda «Sadrash» marshini yaratdi va o‘zi talabalar simfonik orkestriga dirijyorlik qildi. 1930-yilda Muxtor Ashrafiy O‘zbek Davlat musiqali drama teatrining bosh dirijyori qilib tayinlanadi. Ijodkor musiqiy bilimlarini kengaytirishga, doimo izlanishga harakat qildi. 1934-1937-yillar davomida Moskva konservatoriyasi qoshidagi opera studiyasida taniqli bastakor N. Vasilenkodan musiqa ijodi nazariyasi bo‘yicha ta’lim oladi. 1937-yilda esa Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbek san’ati dekadasiga dirijyor qilib tayinlandi.

Toshkentga qaytib kelgach, o‘zbek opera va balet teatrining bosh dirijyori va badiiy rahbari lavozimiga tayinlanadi. 1939-yilda Muxtor Ashrafiy S.Vasilenko bilan birga “Bo‘ron” operasini yozadi, oradan bir yil o‘tgach esa, bu ikkala bastakorning boshqa bir asari - “Ulug‘ kanal” operasi yaratildi [2]. Jonkuyar san’atkor Muxtor Ashrafiy ijtimoiy qiyin damlarda ham sevgan sohasi – san’atdan bir lahza bo‘lsa-da to‘xtamadi. Ulug‘ Vatan urushi yillarida Muxtor Ashrafiy

“Jangga boraman”, “Qasam”, “Sevgilimga salom”, “Jangda botir bo‘l” kabi vatanparvarlik ruhidagi qo‘shiqlar, “Turon”, “Ulug‘ kanal” va “Sherali” asarlaridagi ayrim nomerlar asosida skripka bilan fortepiano uchun kichik pyesalar yaratadi.

Fortepiano uchun «So‘zsiz ashula» («Песня без слов») pyesasi 1934-yilda yozilgan. Bu asar fortepiano uchun yozilgan mashhur lirik asarlaridan biri. Kompozitor ushbu lirik va chuqur ifodali asarni dastlab fortepiano uchun yaratgan edi. Biroq asar musiqachilar orasida shunchalik ommalashib ketdiki, yillar davomida uning skripka va fortepiano, violonchel va orkestr, xalq cholg‘ulari orkestri hamda nay va fortepiano dueti uchun moslashtirilgan (transkripsiya qilingan) variantlari sahnalarda ijro etib kelinmoqda.

Har bir cholg‘u yoki ovoz turi o‘ziga xos semantik rangga ega. Masalan, nay, surnay, chang, dutor kabi milliy cholg‘ular qahramonni xalqona muhit, milliy ruh yoki an’anaviy qadriyatlar bilan bog‘lashi mumkin. Skripka, violonchel yoki fortepiano esa obrazning lirik, nozik, ichki kechinmalarga boy tomonlarini ifodalashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mis damli cholg‘ular – truba, trombon, valtorna – ko‘pincha tantanavorlik, qahramonlik, kuch va iroda obrazlarini kuchaytiradi. Past registrdagi cholg‘ular esa sirli, xavotirli yoki dramatik holatlarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi [3, 147-b.].

Ushbu davrning taniqli bastakorlari – jumladan, M.A. Ashrafi, S.A. Yudakov, M.M. Burxonov va I.I. Akbarov, keyinchalik esa M. Bafoev va R. Abdullaev – milliy madaniy merosning ajralmas qismiga aylangan opera asarlarini yaratdilar. Ularning operalaridan olingan parchalar – ariyalar, kvartetlar, duetlar va xor sahnalari – teatr sahnalarida tez-tez namoyish etiladi, shuningdek, turli festival va tanlovlarda ijro etiladi [4, 12-b.].

1958-yil fevral oyida Toshkentda Ashrafiyning “Dilorom” operasi sahnaga qo‘yiladi. So‘ngra 1962-yilda uning boshqa bir operasi - “Shoir qalbi” yaratildi. San’atkor 1964-yilda B. Bargi pyesasi asosida “Mirzo Izzat Hindistonda” sahna

asarini yozdi. 1963-1964-yillarda Sadriddin Ayniy xotirasiga bag‘ishlab “Temur Malik” simfonik poema-rapsodiyasini, “Sadoqat” (Habibiy she’ri), “Ajoyib tun” (Ya. Qurbon she’ri) va “Ko‘zlari ofatijon” (T. To‘la she’ri) qo‘shiqlarini yozdi. Bastakor 1965-1970-yillar mobaynida “Sevgi tumori” baletini, simfonik orkestr va ovoz uchun “Ona mehri” romansini, “Jangovar kunlarda” vokal simfonik poemasini, simfonik orkestr uchun “Subhidamda” xoreografik manzaralarini yaratdi. “Dilorom” va “Shoir qalbi” operalari musiqalari asosida simfonik orkestr uchun ikkita suita yozdi [5]. Bundan tashqari, kompozitor “Momaqaldiroqda tug‘ilganlar”, “Koniyuta g‘orining siri”, “Dilorom” (Film-balet) va “Qadimgi qal’a afsonasi” kinofilmlariga musiqalar bastaladi. O‘lmas asarlar yaratuvchisi, ustoz Muxtor Ashrafiy 1964-1966-yillarda yangi tashkil topgan Samarqand opera va balet teatrining direktori, badiiy rahbari va bosh dirijyori, 1966-1971-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Akademik katta opera va balet teatrida badiiy rahbar va bosh dirijyor, 1971-yildan umrining oxirigacha Toshkent Davlat konservatoriyasi rektori vazifalarini bajardilar.

Muxtor Ashrafiy O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston xalq artisti faxriy unvonlariga sazovor bo‘lgan. Ustoz shuningdek Shuhrat ordeni, ikki marta nufuzli Davlat mukofoti, Hamza nomidagi respublika Davlat mukofoti, J. Neru nomidagi Hindiston Davlat mukofoti, Jamol Abdul Nosir nomidagi Misr Davlat mukofoti sovrindori hamdirlar. Mustaqillik yillarida ustoz yaratgan go‘zal va betakror asarlar, o‘lmas navolarni tarannum etish, o‘rganish hamda rivojlantirish, qolaversa san’at hayoti mazmuniga aylangan insonning nomini abadiylashtirish borasida ko‘plab tadbirlar amalga oshirildi. Hozirgi kungacha uning barcha asarlari tinglovchilar tomonidan tinglanib, ijro etib kelinmoqda.

M. Ashrafiyning boy ijodiy merosi o‘zbek milliy musiqa san’atining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Kompozitorning ko‘plab asarlarida o‘zbek xalqining milliyligi, ma’naviy qadriyatlari, urf-odatlari va betakror musiqiy

an’analari yorqin aks etgan. Ayniqsa, uning kuy va kompozitsiyalarida milliy ohanglardan, xalq musiqasiga xos ladlardan hamda turli melizmlardan keng foydalanilgani asarlarning badiiy ta’sirchanligini yanada oshiradi. Bu jihatlar Ashrafiy ijodining o‘ziga xosligini belgilab, uning musiqiy merosini bugungi kunda ham dolzarb va ahamiyatli qilib kelmoqda.


Shu bilan birga, hozirgi kunda ko‘plab yosh va malakali kompozitorlar M. Ashrafiyning ijodiy merosiga murojaat qilmoqda. Uning asarlaridagi milliy musiqiy ifoda vositalari, kuy tuzilmalari va ohang xususiyatlari zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, kompozitor kuylaridan iqtibos sifatida foydalanish, ularni yangi musiqiy shakllar va zamonaviy uslublar bilan uyg‘unlashtirish orqali turli janrlardagi asarlar yaratilayotganini kuzatish mumkin. Bunday ijodiy yondashuv milliy musiqiy merosning davomiyligini ta’minlash bilan birga, uning yangi badiiy talqinlarda namoyon bo‘lishiga ham imkon yaratadi.

Jumladan, Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Kompozitorlik, bastakorlik va umumiy fortepiano” kafedrasi dotsenti Abdulaziz Xasanovni bunga misol sifatida keltirish mumkin. Uning ijodiy faoliyati orqali milliy musiqiy an’analar va zamonaviy kompozitorlik tafakkuri o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni o‘rganish, M. Ashrafiy merosining bugungi musiqa ijodiyotiga ta’sirini yoritish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.


Shuningdek, M. Ashrafiyning mashhur «Kashmirda» romansi kompozitor va bastakor Abdulaziz Xasanov tomonidan tayyorlangan fortepiano transkripsiyasi orqali ham keng ijro etilmoqda. Mazkur transkripsiya asarning badiiy mazmuni, milliy musiqiy xususiyatlari va o‘ziga xos ohangdorligini fortepiano ijrochiligi vositasida namoyon etishga xizmat qiladi. Unda romantik ruh, kuy rivojlanishidagi nafislik hamda musiqiy ifoda vositalarining o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Fortepiano transkripsiyasi ijrochilardan texnik mahorat bilan bir qatorda,

asarning obrazli mazmunini chuqur his etish va musiqiy jumlalarni ta’sirchan talqin qilishni talab qiladi. Bu esa M. Ashrafiy ijodining zamonaviy ijrochilik amaliyotidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Muxtor Ashrafiyning asari asosidagi fortepiano transkripsiyasini tinglash uchun:



“Yunus Rajabi nomidagi O‘zbek milliy musiqiy san’at instituti katta o‘qituvchisi” Rahimova Nigina Kaxramonjonovna.



O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori Adiba Sharipova.

Transkripsiya qilingan asarlarni o‘rganish va ijro etish orqali pianistlar nafaqat texnik mahoratni oshiradilar, balki asl kompozitsiyaning tuzilishi, uslubi va ifodaviy xususiyatlarini chuqurroq tushunadilar [6, 168-b.].

Shuningdek, raqamli texnologiyalar fortepiano ta’limida keng imkoniyatlar yaratib, o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Audio va video yozuvlar, onlayn platformalar, interaktiv dasturlar ijrochilik jarayonini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va individual yondashuvni kuchaytirishga imkon beradi [7, 71-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Makharov N. Становление узбекской национальной композиторской школы // Проблемы современной науки и образования. – 2017. – № 35. – С. 48–51.
2. Muradova D. Опера и музыкальная драма: к проблеме взаимоотношений жанров. Часть 2. Выпуск 1. – М.: Прогресс, 1996.
3. Narturaeva S. Animatsion film musiqasida obrazlarni ifodalashning leytmotiv va tembr-dramaturgik xususiyatlari // Journal of National Culture. – 2026. – № 3. – B. 135–149. – ISSN 3060-5490.
4. Mirzajonova N. The Creativity of Composers of Uzbekistan in Piano Ensemble Pedagogy // Вестник Санк-Петербурского университета. – 2025. – Т. 15, вып. 4. – С. 10–17.
5. Ashrafiy M. Музыка в моей жизни. – Т.: Издательство литературы и искусства им. Г. Гуляма, 1975.
6. Mirzajonova N. O‘zbek kompozitorlari ijodida fortepiano transkripsiyalari va ansambl ijrosi // Oriental Art and Culture. – 2025. – Vol. 6, № 4. – B. 167–172.
7. Mirzajonova N., Rajabova D., Ibragimova S. O‘zbekistonda fortepiano ta’limi va ijrochiligidagi dolzarb muammolar // Maqom ilmiy-uslubiy jurnal. – 2025. – T. 3. – B. 69–72.
8. Internet ma’lumotlari («Vikipediya», ensiklopediyalar va boshqa internet saytlari).

References

1. Makharov, N. “Stanovleniye uzbekskoy natsional'noy kompozitorskoy shkoly [Formation of the Uzbek National School of Composition].” *Problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya* [Problems of Modern Science and Education], no. 35 (2017): 48–51. (in Russian)
2. Muradova, D. *Opera i muzykal'naya drama: K probleme vzaimootnosheniy zhanrov* [Opera and Musical Drama: On the Problem of Genre Interrelationships]. Part 2, Issue 1. Moscow: Progress, 1996. (in Russian)
3. Narturaeva, S. “Animatsion film musiqasida obrazlarni ifodalashning leytmotiv va tembr-dramaturgik xususiyatlari [Leitmotif and Timbre-Dramaturgical Features of Character Representation in Animated Film Music].” *Journal of National Culture*, no. 3 (2026): 135–149. (in Uzbek)
4. Mirzajonova, N. “The Creativity of Composers of Uzbekistan in Piano Ensemble Pedagogy.” *Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta* [Bulletin of Saint Petersburg University] 15, no. 4 (2025): 10–17. (in English)
5. Ashrafiy, M. *Muzyka v moyey zhizni* [Music in My Life]. Tashkent: Izdatel'stvo literatury i iskusstva imeni G. Gulyama, 1975. (in Russian)
6. Mirzajonova, N. “O‘zbek kompozitorlari ijodida fortepiano transkripsiyalari va ansambl ijrosi [Piano Transcriptions and Ensemble Performance in the Works of Uzbek Composers].” *Oriental Art and Culture* 6, no. 4 (2025): 167–172. (in Uzbek)
7. Mirzajonova, N., D. Rajabova, and S. Ibragimova. “O‘zbekistonda fortepiano ta’limi va ijrochiligidagi dolzarb muammolar [Current Issues in Piano Education and Performance in Uzbekistan].” *Maqom ilmiy-uslubiy jurnal* [Maqom Scientific and Methodological Journal] 3 (2025): 69–72. (in Uzbek)